

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O‘ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o‘g‘li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O‘RGANISHDA “TARJIMON” GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG‘ONA VODIYSI O‘ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra‘no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O‘ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA‘LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO‘JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G‘ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O‘ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o‘g‘li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o‘g‘li</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOYIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Bahodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatulloevich, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIYDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIY TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafuz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevvara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

ECOLOGICAL THINKING AND GREEN ECONOMY AS A NEW PHILOSOPHICAL PARADIGM OF THE THIRD RENAISSANCE

Mukhiddinova Khakimakhon Gulomovna

Senior Lecturer, Namangan State Technical University

E-mail: muxiddinovax@mail.ru

Abstract. This article analyzes the philosophical essence of the Third Renaissance and its role in the formation of ecological thinking. The study discusses the restoration of harmony between humans and nature, the enhancement of ecological responsibility, and the socio-philosophical foundations of the green economy concept. The model of the green economy is presented as one of the core principles of the Third Renaissance, expressing the unity of sustainable development, spiritual revival, and ecological consciousness. The article explores the emergence of a new philosophical paradigm of human thought at the intersection of philosophy, ecology, and social sciences.

Keywords: Third Renaissance, ecological thinking, green economy, socio-philosophical foundations, sustainable development, ecological consciousness, spiritual revival, ecological responsibility.

EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA

Muxiddinova Xakimaxon G'ulomovna

Namangan davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uchinchi Renessans davrining falsafiy mazmuni va uning ekologik tafakkur shakllanishidagi o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash, ekologik mas'uliyatni oshirish hamda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan asoslash masalalari yoritilgan. Yashil iqtisodiyot modeli Uchinchi Renessans davrining asosiy tamoyillaridan biri sifatida, barqaror rivojlanish, ma'naviy uyg'unish va ekologik tafakkur uyg'unligini ifodalaydi. Maqola falsafiy, ekologik va ijtimoiy fanlar tutashgan nuqtada insoniyat tafakkurining yangi paradigmasi ekologik ongning shakllanishini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans davri, ekologik tafakkur, yashil iqtisodiyot, ijtimoiy-falsafiy asoslar, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ma'naviy uyg'unish, ekologik mas'uliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N42>

Kirish. Uchinchi Renessans davri ilm-fan, ma'naviyat va falsafaning uyg'un rivojlanish bosqichi bo'lib, insoniyat tafakkurining ekologik yo'nalishga o'tishini anglatadi. Zamonaviy sivilizatsiyaning murakkab ekologik muammolari insonni o'z dunyoqarashini qayta ko'rib chiqishga, tabiatga nisbatan axloqiy va mas'uliyatli yondashuvni shakllantirishga majbur qilmoqda.

Uchinchi Renessansning falsafiy mohiyati shundan iboratki, u insonni tabiatning hukmdori emas, balki uning ajralmas qismi sifatida anglashga undaydi. Shu ma'noda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ushbu davrning iqtisodiy va ma'naviy poydevorini tashkil etadi. U nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi tafakkur tizimidir.

Maqolada Uchinchi Renessans davri g'oyalarining ekologik tafakkur bilan uyg'unlashuvi, yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-falsafiy mazmuni va insoniyatning ma'naviy yangilanish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Uchinchi Uyg'onish davrining falsafiy, ekologik va ijtimoiy mazmunini o'rganish masalasi so'nggi yillarda dunyo miqyosida ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadqiqotchilar bu jarayonni insoniyat tafakkurining yangi bosqichi, global tafakkur paradigmasining ekologik barqarorlik, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy tenglik bilan uyg'unlashgan shakli sifatida talqin etmoqdalar.

Masalan, E. Moren va U. Bek asarlarida XXI asr sivilizatsiyasi "ekologik ong"ga asoslangan yangi ijtimoiy ong bosqichiga kirgani ta'kidlanadi. A. Giddens globalizatsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida ekologik xavfsizlikni insoniyat barqarorligining markaziy mezoniga aylantirish zarurligini qayd etadi. Shu jihatdan, Uchinchi Uyg'onish davrini ijtimoiy-falsafiy tafakkurda "planetar ong" shakllanishining tabiiy natijasi sifatida baholash mumkin[1].

Ekologik ong va yashil iqtisodiyot konsepsiyalari bo'yicha UNEP (United Nations Environment Programme), OECD hamda World Bank tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro konseptual hujjatlar barqaror rivojlanish nazariyasining falsafiy asoslarini chuqurroq anglashga zamin yaratgan. Jumladan, 2011-yilgi "Towards a Green Economy" hisobotida yashil iqtisodiyot "tabiat resurslaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish tizimi" sifatida ta'riflanadi.

Shuningdek, H. Daly, N. Georgescu-Roegen kabi ekologik iqtisodiyot nazariyotchilari iqtisodiy rivojlanishning antroposentrik modelini tanqid qilib, biosfera bilan uyg'un yashashga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmani taklif etganlar. Bu fikrlar Uchinchi Uyg'onish davrining g'oyaviy mohiyatiga mos ravishda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qayta anglash zaruratini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Uchinchi Renessans poydevorini barpo etamiz" degan g'oyasi ham ana shu jarayonning milliy falsafiy va amaliy ifodasidir. O'zbekiston olimlari – A. Asqarov, O. X. Tursunov, B. Ergashev va boshqalar – o'z tadqiqotlarida milliy uyg'onish, ekologik barqarorlik va axloqiy mas'uliyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligini tahlil etib, ularni jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatganlar[2].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Uchinchi Uyg'onish davrining falsafiy mohiyatini ochishda ekologik mas'uliyat, yashil iqtisodiyot va ijtimoiy adolat o'zaro uyg'un tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrni inson va tabiat o'rtasidagi yangi muvozanatni izlash, ya'ni

Muhokama. Global ekologik inqiroz an'anaviy axloqiy me'yorlarga zid keladigan va insoniyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadigan ko'plab axloqiy dilemmalarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu masalalarning zamirida hozirgi va kelajak avlodlar o'rtasida ekologik resurslar hamda yuklarni adolatli taqsimlashga oid avlodlararo adolat tushunchasi yotadi. Hozirgi avlodning harakatlari va qarorlari kelajak avlodlar farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ular atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar, uni yumshatish, shuningdek, sayyoramizni kelajak avlodlar uchun asrab qolish borasidagi ma'naviy majburiyatlar haqida chuqur o'ylashga majbur etadi. Bu axloqiy imperativ inson markaziga qaratilgan yondashuvdan chiqib, inson bo'lmagan hayot shakllari va

ekotizimlarning ichki qadrini tan oladi. U barcha tirik mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligini va ularning manfaatlarini axloqiy jihatdan inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Ekologik inqirozga axloqiy munosabatlar turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: ekologik etika, ekologik adolat va chuqur ekologiya tamoyillarida. Atrof-muhit etikasining maqsadi — inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni boshqaruvchi axloqiy tamoyillarni belgilashdir. Unda boshqaruv, barqarorlik va biologik xilma-xillikka hurmat tushunchalari asosiy o‘rin tutadi. Ekologik adolat harakati esa ekologik resurslar va foydalarni adolatli taqsimlashni, atrof-muhit degradatsiyasining zaif jamoalarga nomutanosib ta’sirini kamaytirishni maqsad qiladi. Chuqur ekologiya esa inson ongini tubdan o‘zgartirishni, antropotsentrizm o‘rniga barcha hayot shakllarining ichki qadriyatini tan oladigan eko-sentrik dunyoqarashni ilgari suradi.

Bundan tashqari, ekologik inqiroz shaxslar, jamoalar va hukumatlarning ekologik muammolarni hal etishdagi ma’naviy mas’uliyati haqida ham savollarni keltirib chiqarmoqda. Atrof-muhit faollari ekologik izni kamaytirish, tabiatni muhofaza qilishga undash va ekologik siyosatni barqarorlikka yo‘naltirish zarurligini ta’kidlashadi. Iste’molni kamaytirish, chiqindilarni qisqartirish, ekologik harakatlarda qatnashish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlash - bularning barchasi insonning ekologik inqirozga nisbatan axloqiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Ekologik inqiroz inson mavjudligining mohiyati va hayotning ma’nosi haqida chuqur ekzistensial izlanishlarga turtki beradi. Ekotizimlarning yemirilishi, turlarning yo‘qolib borishi va iqlim o‘zgarishining kuchayishi odamlarni o‘z o‘rnini va Yer boshqaruvidagi mas’uliyatini qayta anglashga undaydi. Bu jarayon antroposentrik dunyoqarashni ya’ni inson manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi fikr tizimini shubha ostiga oladi. Odamlar barcha tirik mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligi va cheklangan sayyoradagi hayotning nozik muvozanati haqida o‘ylashga majbur bo‘ladi[3].

M. Haydegger, A. Kamyu va J. Meysi kabi faylasuflar inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik, ekologik o‘zlik va ma’no izlash mavzularini chuqur o‘rganishgan. Haydeggerning “Dunyoda borliq” konsepsiyasi inson va tabiatni qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq mavjudot sifatida talqin etadi. Kamyu o‘zining “absurd falsafasi”da insonning noaniq va ma’nosiz dunyoda maqsad topish zarurligini ta’kidlaydi. Meysi esa chuqur ekologiya va tizimli fikrlash orqali ekologik ong va hamdardlikni rivojlantirishga chaqiradi.

Natijada, ushbu ekzistensial tahlillar tabiatning o‘ziga xos qadri va inson farovonligi uchun ekologik yaxlitlikning ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu orqali insonlar ekologik ong va sayyora nisbatan axloqiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi[4].

Atrof-muhit inqirozi bizning dunyoni anglash usullarimizni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. An’anaviy bilish shakllari ko‘pincha inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yetarlicha inobatga olmagan. Shu sababli faqat ilmiy yondashuvga tayanishning cheklovlari tobora ayon bo‘lmoqda. Arne Naess va Val Plumvud kabi faylasuflar mahalliy donolik va tajribaviy bilimlarni birlashtirgan holda yanada inklyuziv dunyoqarashni ilgari surishadi.

Naess “chuqur ekologiya” g‘oyasini taklif qilib, inson markazidagi qarashlardan chiqib, barcha tirik mavjudot va ekotizimlarning ichki qadriyatini tan olish zarurligini ta’kidlaydi. Plumvudning ekofeminizm konsepsiyasi esa ekologik, gender va ijtimoiy adolat masalalarini birgalikda tahlil qilish zarurligini uqtiradi. Unga ko‘ra, an’anaviy bilim tizimlari ko‘pincha ayollar va marginal guruhlar tajribasini e’tiborsiz qoldirib, ekologik adolatsizlikni kuchaytirgan.

Bu gnoseologik yondashuv bizni bilimni yanada kengroq, ko'p qirrali tushunishga undaydi. Turli bilim shakllarini birlashtirish orqali biz ekologik muammolarga yanada chuqur, kontekstual va madaniy jihatdan mos yechimlar ishlab chiqishimiz mumkin.

Texnologiya inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda muhim rol o'ynaydi, biroq u hech qachon neytral vosita emas – unda jamiyat qadriyatlarini, mafkuralari va e'tiqodlari mujassam. Neil Postman va Langdon Winner kabi mutafakkirlar texnologiya o'zida siyosiy va ijtimoiy ma'noni ham tashiydi, deb hisoblaydilar. Postman "texnopoliyalari" tushunchasini kiritib, texnologiya jamiyat hayotining barcha jabhalarida hukmronlik qilayotganini, buning evaziga madaniy qadriyatlar va ekologik tafakkur so'navotganini ta'kidlagan. Winner esa "siyosiy artefaktlar" g'oyasini ilgari surib, texnologiyalar ijtimoiy va siyosiy mafkuralarni aks ettiradi, deydi. Masalan, qazib olinadigan yoqilg'ining keng qo'llanilishi iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlikdan ustun qo'yish oqibatidir.

Bunday muammolarni hal etish uchun ekologik mutafakkirlar texnologiyaga alternativ, ekologik yondashuvlarni taklif etadilar. Masalan, ekologik dizayn tamoyillari atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan; mos texnologiyalar esa mahalliy jamoalar uchun madaniy va ekologik jihatdan mos yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Yashil innovatsiyalar esa qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror kelajakni ta'minlashga qaratilgan[5].

Inson va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqish orqali biz texnologik salohiyatni ekologik muammolarni hal etish va barqarorlikni rivojlantirish yo'lida samarali qo'llashimiz mumkin.

Natijalar. Ekologik iqtisodiyot iqtisodiy faoliyat va tabiiy muhit o'rtasidagi ichki bog'liqlikni tan olish orqali an'anaviy iqtisodiy paradigmalardan chekinishni ifodalaydi. Neoklassik iqtisodiyot ko'pincha tabiatga tashqi omil sifatida qarasa, ekologik iqtisodiyot inson iqtisodiyoti ekologik tizimlar ichida joylashganini va ularga bevosita bog'liqligini e'tirof etadi. Tabiiy resurslarning cheklanganligi va iqtisodiy o'sishning ekologik chegaralari bu yondashuvning markaziy nuqtasini tashkil etadi. Ekologik iqtisodchilar barqarorlik va chidamlilik g'oyalarini ilgari surib, ekologik tamoyillarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga kiritish tarafdori. Ekologik iqtisodiyotning asosiy tushunchalariga ekotizim xizmatlarini baholash ya'ni ekotizimlar tomonidan taqdim etiladigan foydalarga iqtisodiy qiymat berish hamda yalpi ichki mahsulotdan tashqari taraqqiyotni o'lchovchi muqobil ko'rsatkichlarni ishlab chiqish kiradi. Iqtisodiy tahlilga ekologik omillarni kiritgan holda, ekologik iqtisodiyot yashil iqtisodiyot asoslarini shakllantirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va inson farovonligini birinchi o'ringa qo'yadigan siyosat hamda amaliyotlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Atrof-muhit sotsiologiyasi ekologik muammolarning ijtimoiy o'lchovlarini o'rganadi, ya'ni jamiyat tuzilmalari, madaniy qadriyatlar va kuch dinamikasi insonning tabiat bilan o'zaro munosabatini qanday shakllantirishini tahlil qiladi. Bu yondashuv hukumatlar, korporatsiyalar va ommaviy harakatlarning ekologik siyosat hamda amaliyotlarni shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Atrof-muhit sotsiologiyasi, shuningdek, ijtimoiy tengsizliklarning ekologik muammolar bilan qanday kesishishini, resurslardan foydalanish va ekologik xavf-xatarlarga ta'sirini o'rganadi. Uning asosiy mavzulari orasida ekologik adolat ya'ni atrof-muhitga doir foyda va yuklamalarning turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida teng taqsimlanmasligini o'rganish hamda ekologik fuqarolik inson va jamoalarning tabiat oldidagi huquq hamda majburiyatlarini

o'rganish alohida o'rin tutadi. Atrof-muhit masalalarining ijtimoiy jihatlarini yoritgan holda, atrof-muhit sotsiologiyasi yashil iqtisodiyot asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bu yondashuv qarorlar qabul qilishdagi ijtimoiy adolatsizlik va tengsizliklarni tan olish, ularni bartaraf etish, chekka qatlam vakillarining imkoniyatlarini kengaytirish va ekologik barqarorlikni jamoaviy harakatlar orqali rag'batlantirishni talab etadi.

Siyosiy ekologiya atrof-muhitdagi o'zgarishlarning ildizida yotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilib, jamiyat ichidagi kuch va resurslarning teng bo'lmagan taqsimlanishiga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv siyosiy va iqtisodiy omillar tabiatdan foydalanish va uni ekspluatatsiya qilish shakllarini qanday belgilashini tahlil qiladi, natijada ko'pincha ijtimoiy tengsizlik va ekologik zaiflik kuchayadi.

Siyosiy ekologlar kapitalizm va neoliberalizmning tabiatni yemirishdagi rolini tanqid qilib, bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuvlar barqarorlikdan ko'ra foydani ustuvor qo'yishini ta'kidlaydilar. Siyosiy ekologiyaning asosiy tushunchalariga atrof-muhit boshqaruvi tabiiy resurslarga oid qarorlarning qanday qabul qilinishi va amalga oshirilishini o'rganish hamda ekologik ziddiyatlar resurslarga kirish va ularni nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy to'qnashuvlarni o'rganish kiradi. Atrof-muhit muammolarining siyosiy jihatlarini yoritgan holda, siyosiy ekologiya strukturaviy tengsizlik va kuch muvozanatini bartaraf etish zarurligini ta'kidlaydi hamda yashil iqtisodiyot asoslarini shakllantirishga hissa qo'shadi. Bu istiqbol barqarorlikka erishish va tabiiy resurslarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash uchun iqtisodiy hamda siyosiy tizimlarda tub o'zgarishlarni talab etadi[5].

Xulosa. Ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit sotsiologiyasi va siyosiy ekologiya bugungi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslarini shakllantiruvchi eng muhim fanlar sirasiga kiradi. Ularning barchasi inson faoliyati, iqtisodiy o'sish va ekologik tizimlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni anglashga, mavjud iqtisodiy va siyosiy tizimlarni qayta ko'rib chiqishga chorlaydi.

Ekologik iqtisodiyot tabiatni iqtisodiy faoliyatning tashqi emas, balki ichki elementi sifatida ko'rib, resurslardan oqilona foydalanish, barqarorlik va inson farovonligini ustuvor maqsad sifatida ilgari suradi. Atrof-muhit sotsiologiyasi esa ekologik muammolarni ijtimoiy tengsizlik, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan tahlil qilib, ekologik adolat va fuqarolik mas'uliyati g'oyalarini ilgari suradi. Siyosiy ekologiya esa kuch, resurs va manfaatlar taqsimotidagi nomutanosiblikni fosh etib, ekologik siyosatni adolat va tenglik tamoyillariga asoslash zarurligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, bu uch yondashuv o'zaro uyg'unlashgan holda insoniyatni iqtisodiy o'sish va tabiatni asrash o'rtasida muvozanat topishga undaydi. Ular yashil iqtisodiyot g'oyasining nazariy poydevorini yaratadi hamda ekologik barqaror, adolatli va inklyuziv jamiyat qurish yo'lida ilmiy-amaliy yo'nalishlarni belgilab beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шмелев, С. Green Economy Reader: Lectures in Ecological Economics and Sustainability. – Springer, 2017. – 563 p.
2. Якобсен, О. Transformative Ecological Economics: Process Philosophy, Ideology and Utopia. – London: Routledge, 2019. – 248 p.
3. Дэйл, Г., Матай, М. В., де Оливейра, Ж. А. П. Green Growth: Ideology, Political Economy and the Alternatives. – London: Bloomsbury Academic, 2016. – 368 p.
4. Jo'rayev, A., Xo'jayev, B. Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik. – Toshkent: Fan, 2018. – 220 b.

5. Tursunov, M., To'laganova, G. Ekologik tafakkur va yashil iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 198 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).